

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

Adabiy qahramon obrazi

Abdulla ULUG'OV¹**Abstrakt**

“Adabiy qahramon” deganda, birinchi navbatda, badiiy asarlardagi inson obrazi nazarda tutiladi. “Adabiy qahramon” esa hamisha adabiyotshunoslikda muhim muammolardan biri sanaladi. Badiiy asarlarda kishilar obrazi hayot voqealari jarayonida, xayol-tasavvurdagi olam ichida ko'rsatiladi. Ular fe'l-atvori, xatti-harakatiga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. She'riy, nasriy va drama turiga mansub asarlardagi kishilar obrazi o'ziga xos xususiyatlari bilan e'tiborni tortadi.

Adabiy qahramon obrazi badiiy asarning tarkibiy qismini tashkil etuvchi, uning syujeti va kompozitsiyasini belgilovchi juda ko'p omillar bilan bevosita bog'lanib ketadi. Xususan, syujet tizimida voqealarni tahlil qilganda, hodisalar ro'y beradigan zamon va makon to'g'risida so'z yuritilganda, muallif maqsadi va asar g'oyasi xususida mulohaza bildirilganida, albatta, hikoya, qissa, roman, drama, komediya, tragediya, doston, afsonadagi adabiy qahramon obraziga e'tibor qaratiladi. Urg'ulanayotgan hayot hodisalari qanday yoritilgani adabiy qahramon obrazi qanaqa gavdalantirilganidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Adib, shoir, dramaturgning ijodkor sifatidagi mahorati ham, asarning badiiylilik darajasiga ham unda adabiy qahramon obrazi qanday aks ettirilganiga qarab baho beriladi.

Har bir asarning o'ziga xosligi, o'z-o'zidan ayonki, undagi adabiy qahramon obrazida ko'rinadi. Badiiy asar “sahna”sida bir emas, bir necha adabiy qahramon harakatlanadi. Ular voqealar jarayonidagi ishtiroki darajasi, syujet tizimidagi hodisalarda tutgan o'rniga ko'ra, shartli tarzda, “bosh qahramon”, “asosiy qahramon”, “ikkinchi darajali qahramon” tarzida ajratiladi. Asarda diqqat markaziga qo'yilgan muammo ularni bir-biri bilan o'zaro bog'lab turadi. Adabiy qahramonlarning har biri o'zining faoliyati bilan diqqat qaratilgan muammoning muayyan jihati, qaysidir qirrasini yoritadi. Ular asosiy adabiy qahramonning xarakteri xususiyatlari namoyon bo'lishiga o'z hissasini qo'shadi.

¹ *Ulug'ov Abdulla O'zbekovich* – filologiya fanlari nomzodi, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: aulugov@navoiy-uni.uz; ulugovabdulla05121960@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-7013-400X

Iqtibos uchun: Ulug'ov, A. 2024. “Adabiy qahramon obrazi”. *O'zbekiston: til va madaniyat*. 1 (2): 4-32.

Mazkur maqolada badiiy asarlarda inson obrazi qanday aks ettirilishi to'g'risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: *inson, bosh qahramon, asosiy qahramon, ikkinchi darajali qahramon, personaj, xarakter, badiiy asar, ijtimoiy hayot, muallif maqsadi, asar mavzusi, asar g'oyasi.*

Adabiy asarlardagi qahramonlarning barchasi ham, albatta, kishiga birday ta'sir etmaydi. Voqealar markazida turgan, xarakter darajasiga ko'tarilgan, o'z taqdir-qismatining chigalliklari, ziddiyatli o'y-kechinmalari bilan o'ylantira oladigan adabiy qahramonlarga diqqatni jalb etadi. Chunki ular kechmish-kechirmishlari, o'y-kechinmalari bilan kishilarning hayot murakkabliklari to'g'risidagi tasavvurini kengaytiradi. Shuning uchun Rabindranat Thokur: "Adabiyot yordamida biz boshqa odamlar bilan ma'naviy yaqinligimizni his qilishimiz mumkin. Adabiyot hissiyotlarimizni ma'lum yo'lga solib turadi, yuragimizni boshqa odamning yuragiga hamnafas-hamdard bo'lib qattiqroq urishga undaydi, qalbimizni yangi hayotga da'vat qiladi, uni tobora baquvvat qiladi" deydi [Tagor. 1965, 253]. Adabiyot avvalo adabiy qahramonlari tufayli shunday ta'sir kuchiga erishadi. Biz adabiy qahramonlar sabab o'zimiz, mavjud hayotimiz to'g'risida o'ylab ko'ramiz, har birimizning quvonchimiz, qayg'umiz boshqalarga bevosita bog'liqligini anglaymiz. Mashhur adib Jeyms Joysning "Navqiron san'atkorning siyrati" romanida adabiy qahramon bilan kitobxon o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinib, jumladan: "Eskirib to'zigan kitobni – "Graf Monte-Kristo"ning tarjimasini o'qishga beriladi. Bu qayg'uli qasoskor obrazi uning tasavvurida bolaligida xayol qilgan tushunarsiz va qo'rqinchli narsalarga bog'lanib ketardi. Kechalari u mehmonxonadagi stol ustida qog'ozga ko'chiriladigan suratlardan, qog'oz gullar, rangli yupqa qog'ozlar va shokolad o'raydigan yaltiroq qog'oz tasmachalardan oroldagi vahimali g'or shaklini yasardi. Keyin bu inshootning soxta yaltiroqligidan yuragi siqilib, buzib tashlardi va shundan ko'z o'ngida Marselning yorqin manzarasi, quyosh nurlari to'kilib turgan bog' tevaragidagi to'siqlar va Mercedes paydo bo'lardi" [Joys. 2007, 3-98] deyiladi.

Adib, shoirning hayoti, tarjimai holi yoki uning asari to'g'risida gap ketganda u o'z-o'zidan shu ijodkor yaratgan adabiy qahramonga borib bog'lanadi. Chunki adabiy qahramon ijodkorning shaxs sifatidagi olamini namoyon etib, uning inson dunyosini qanchalik anglashini, asarining ahamiyatini aniq ko'rsatib beradi. Shuning uchun Abdulla Qodiriy to'g'risida so'z yuritilganda beixtiyor u yaratgan Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no kabi adabiy qahramonlar ta'riflanadi. Yoki Aleksandr Pushkinning tarjimai holini Yevgeniy

Onegin, Tatyana, Rabindranat Thakur dunyosini Gora, Kamola singari adabiy qahramonlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Fyodor Dostoyevskiy deganda xayolda atrofdagi kishilarning fe'l-atvori, o'zaro munosabatlari tufayli iztirob chekkan Mishkin, Raskolnikov, Muxtor Avezov deganda qozoq elining dardi, tashvishi bilan yashagan, gumanist shoir Abay siymosi jonlanadi.

Ertak, afsona, rivoyatlardagi qahramonlarning favqulodda qobiliyati, xatti-harakatida odamlarning orzu-istaklari aks etadi. Shuning uchun ham Abu Nasr Forobiy: "Inson afsonalar, latifalar va xalq rivoyatlarini bilishdan ham quvonib, huzur oladi" deydi. Haqiqatan, har bir odam o'zicha orzu qiladi. Ertak, doston qahramonlarining intilishida o'zining orzulariga monand jihatlarni ko'rganida zavqlanadi. Qahramonlar ezgu niyatlariga erishganida xursand bo'ladi. Chunki har qanday odamning tabiatida, fe'l-atvori qanday bo'lishidan qat'i nazar, ezgulikka xayrixohlik hissi ustun turadi. Ertak, dostonlarda, asosan, ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurash ko'rsatiladi va ular, albatta, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonganini ta'kidlash bilan yakunlanadi. Shu boisdan ertak, dostonlar hammani qiziqtiradi. Ularning g'aroyib qahramonlari hech kimni befarq qoldirmaydi.

"Xamsa" dostonlaridagi adabiy qahramonlar ham mavhum qiyofalar emas. Ular ham boshqa odamlar singari muayyan makon va zamonda yashab ulg'ayadi, mushkul vaziyatlarga tushib, chorasiz qolganida iztirob chekib azoblanadi. Firdavsiy, Nizomiy, Navoiyning qahramonlari xuddi hayotdagi odam singari Rustam, Suhrob, Xusrav, Dilorom, Layli, Qays, Farhod, Shirin, Bahrom, Iskandar deb aniq bir ism-nom bilan ataladi. Arastu so'z san'ati va tarix o'rtasidagi tafovut to'g'risida mulohaza bildirarkan: "Poeziya qahramonlarga ism qo'yish orqali umumiylikka intiladi" [Aristotel 1980, 152] deydi. Haqiqatan, muayyan ismli qahramonning fe'l-atvori, kechinmalarida bir kishining emas, ko'pchilikka xos xususiyatlar ko'rinadi. Ular xuddi tirik kishilar kabi boshqalar bilan muloqot, munosabatda bo'lishib, shu jarayonda turli muammolarga duch kelishadi. Ularni qiynagan iztirob va muammolar har bir davrning mavjud turmush voqeligiga ko'p jihatdan muvofiq keladi. Vaqt o'tishi bilan kishilarning libosi, turmush tarzi o'zgarib boradi. Ularning dunyoqarashida ham muayyan yangilanishlar yuz beradi. Ammo bu bilan insonning asl tabiati butkul o'zgarib ketmaydi. Barcha davrlarda ham shaxsiy manfaat kishilarni harakatlantiruvchi asosiy omil bo'lib qolaveradi. Xalq og'zaki ijodi namunalari ham, ko'hna yozma asarlarda ham, zamonaviy asarlarda ham inson tabiatining

mana shu mangu o'zgarmas tabiati xususida so'z yuritiladi. Shuning uchun turli davrlarga mansub asarlar hamisha barchani qiziqtiradi. Chunki ming yil avval yashab o'tganlar bilan bugungi odamlar fe'l-atvori jihatidan ajdodlaridan tubdan farq qilmaydi. Hozirgi odamlar ham xuddi olis ajdodlari singari orzu-havas qiladi, sevadi, to'siqlarga uchraydi, iztirob chekadi, hasad o'tida yonadi, o'ch olish payiga tushadi, kimnidir do'st bilib yanglishadi. Adabiyot paydo bo'lganidan buyon unda insonning mana shu sirli tilsim dunyosi ko'rsatiladi. Shu boisdan qaysi zamonda yaratilganidan qat'i nazar, adabiy qahramonlar inson tabiati va murakkabliklari to'g'risida tasavvur beradi va ular barcha zamonlarda kishilar uchun o'ziga xos ko'zgu bo'la oladi.

Kishining ichki olamini hech qanday oyna, ko'zgu ko'rsatib berolmaydi. Odam esa toki o'zi ko'rmaguncha, his qilmaguncha boshqalarning ta'rif-tavsifidan qanoatlanmaydi. Chunki boshqalarning bahosida subyektiv munosabat ustun turadi. Inson oyna-ko'zguda o'zining tashqi qiyofasini to'liq ko'rolmaganidek, fe'l-atvorini ham boshqalarning istagi, taklifi yoki talabiga muvofiq o'zgartirolmaydi. Kishi fe'l-atvoridagi illat, nuqsonlarni o'zi anglab yetmaguncha, ulardan xalos bo'lolmaydi. Boshqalarning tanqidlari uni tuzatishdan ko'ra ko'proq asabiylashtiradi, ruhan azoblaydi. Haqiqatni bilish, o'zini anglash g'oyat mashaqqatli kechadi. Ayni hodisa g'oyat murakkab, sirli jarayon ekanligi bois har bir odam qiynaladi, ikkilanadi, yanglishib xato qiladi. Adabiy qahramonlar har bir kishining qilgan ishlari, fe'l-atvori, boshqalar bilan muomala-munosabati to'g'risida o'zicha o'ylab ko'rishi, mushohada yuritishi uchun vosita bo'la oladi. Ular ayni shu jihati bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. O'quvchi, tomoshabin Navoiy, Shekspir, Dostoyevskiy, Tolstoy kabi mutafakkirlarning, Cho'lpon, A.Qodiriy, A.Qahhor kabi adiblarning asarlari, ular asosida yaratilgan spektakl, filmlardagi qahramonlarni jonli, tirik odam sifatida tasavvur qiladi. Chunki ularning ruhiy holatlari tasviri, Fitrat ta'kidlaganidek, "tirikchiligimizda bo'lib turg'an ko'p voqealarning qorong'u puchmoqlarini oydinlatib ko'rsatadir. Yomonlig'i tuzukkina sezilmagan ko'p odatlarimizni butun foje' natijalari bilan gavdalantirib, o'zimizga ko'rsatadir. Shuning uchun hikoya hayotda muhim o'rin tutadi... Ro'monlarda esa asarning qahramoni yo qahramonlari qaysi zamonda, qaysi muhitda, qaysi jamiyatda yashagan bo'lsalar, shularning urf-odat, qonun, tilak, havas, orzu, kamchilik, axloq, e'tiqodlari ingichka ham keng suratda tasvir etiladir" [Fitrat. 2006, 84-85].

Borliqdagi barcha narsa-hodisalar, harakat, o'zgarishlar o'z-o'zicha emas, inson tufayli ma'no, mazmun kasb etadi. Inson va uning hayotiga daxldor bo'lmagan hodisalar hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Adabiy asarlarda turli tabiat hodisalari inson dunyosini ko'rsatish uchun fon, vosita, maydon vazifasini o'taydi. Adabiyotda nafaqat tabiat hodisalari, balki xudolarning ham kishilarga ko'maklashishi to'g'risida so'z yuritiladi. Hindlarning "Ramayana" va "Mahobxorat" eposida, Homerning "Iliyada" va "Odisseya" asarida xudolar odam qiyofasida tasvirlanadi. Ular xuddi odamlar singari hayot kechirishadi va jismoniy kuch, sog'liq va go'zallikni eng oliy qadriyat deb qarashadi. Ma'budalarning harakat, istak, kayfiyatlarida ham odamlarga xos xususiyat yaqqol seziladi. Masalan, yunon adabiyotining eng qadimgi namunalaridan biri, Troya turkumidagi "Kipriya" poemasi Troya urushi oddiy ginadan boshlangani ma'lum qilinadi. Dengiz ma'budasi Fetidaning nikoh to'yiga adovat xudosi Eridani taklif qilishmaydi. U bundan qattiq ranjiydi va o'ch olish istagida alam bilan bazmgohda hozir bo'lganlar o'rtasiga oltin olma tashlaydi. Gera, Afrotida va Afina "sohibjamolga" degan yozuv bitilgan ushbu oltin olmani olmoqchi bo'lishadi. Chunki ularning har biri o'zini "go'zallar malikasi" sanaydi. Ular oltin olma tufayli bir-biriga murosasiz dushmanga aylanadi. Ma'bud va ma'budalar bir-biridan ranjib, Fetidaning to'yida janjal boshlanadi va hammaning ko'nglini alam, adovat egallaydi va muhtasham shahar Troya vayron bo'ladi. Hind adabiyotining qadimiy yodgorliklari "Ramayana", "Mahobxorat" dostonlarida ham ma'bud va ma'budalarning bir-biriga adovat qilishi va bundan odamlar jabr ko'rishi naql qilinadi. Qadimgi ertak, afsona, rivoyatlarda kishilar hayotiga daxldor barcha hodisalarning o'z xudosi borligi, bu xudolar xuddi insonlar kabi arziyas, mayda-chuydalar sabab, bir-biri bilan nizolashib qolishi to'g'risida so'z yuritiladi. Ertak, rivoyatlar, antik adabiyotning "Iliyada", "Odisseya", "Ramayana", "Mahobxorat" kabi namunalari insoniyat badiiy tafakkuridagi eng dastlabki obraz xudo bo'lganligi, odamlar ma'budlarni o'zlariga o'xshash qiyofada tasavvur qilganidan dalolat beradi.

Kishilar xayol, tasavvurlaridagi olamgagina emas, tabiat hodisalariga ham o'z fe'l-atvorlariga xos xususiyatlarni "singdirishadi". Shu boisdan ular koinotning yaralishi, yerning paydo bo'lishini o'zlarining o'zaro munosabatlari asosida tasavvur qilishib, yer va osmon, suv va olov, shamolning odamlar singari harakat qilishi, yashashi haqida rivoyat, afsonalar to'qishgan. Ertak, dostonlarda xudolar, farishtalar, yer, osmon, suv, shamol,

momaqaldiraqning odamlar singari so'zlashi, harakat qilishi ham inson azaldan adabiyotning asosiy adabiy qahramoni bo'lganligi va uning hayoti hamisha bosh mavzu bo'lib kelganini bildiradi.

Adabiyotda inson timsoli adabiy qahramon sifatida hozirgi ko'rinishiga erishguncha juda uzoq zamonlar o'tgan. Masalan, Fyodor Dostoyevskiy asarlarida adabiy qahramon qiyofasi: "Chol bukchayganicha xuddi yog'och oyoqda yurgandek zaif oyoqlari bilan bitta-bitta qadam tashlab, hassasi bilan trotuar toshlarini asta-asta urib, konditer do'koniga yaqinlashaverdi. Men umrimda bunday g'alati, beo'xshov gavdani ko'rgan emasman. Bundan ilgari ham, Miller do'konida u bilan uchrashib qolgan paytlarimda ham unga rahmim kelib, yuragim ezilardi. Novcha bo'yi, egilgan yelkasi, sakson yoshli kishining murdasimon basharasi, chok-chokidan so'kilib ketgan eski paltosi, faqat gardanidagi oq emas, oq-sariq bir tutam sochi qolgan taqir boshi, uning burab yurgizib yuborilgandek harakat qilishi – bularning hammasi uni daf'atan ko'rgan har qanaqa kishini ham hayratga solardi, haqiqatan ham bu oshini oshab, yoshini yashab bo'lgan kimsasiz, g'arib ko'rinishidagi o'z nazoratchilaridan qochib ketgan jinniga o'xshagan chol ko'zga g'alati ko'rinadi. Uning haddan ziyod oriqligi meni yana ham ajablantirar, badanida et degan narsa yo'q. Terisi borib ustixoniga yopishgandi. Atrofi ko'm-ko'k ko'karib ketgan, katta-katta, lekin nursiz ko'zlari to'g'riga qarab tikilganicha turaverardi" [Dostoyevskiy 1996, 4-5] deb ko'rsatiladi. Arab xalqining "Ming bir kecha"sidagi "Aloviddin va sehrli chiroq" ertagi adabiy qahramoni esa: "Qadim zamonda Xitoy viloyatlaridan birida yashagan kambag'al bir tikuvchining Aloviddin ismli o'g'li bor ekan. Bu bola sayoq va bebosh ekan. O'n yoshga yetganida otasi hunar o'rgatmoqchi bo'libdi. Lekin qashshoq bo'lgani sababli, o'g'lini biror ustaga shogirdlikka bera olmabdi. Shuning uchun Alovuddinga ham o'z hunarini o'rgatishga ahd qilib, tikuvchilik do'koniga olib ketibdi. Aloviddin sayoq bola emasmi, kun-uzzu kun o'ziga o'xshash bebosh ko'cha bolalari bilan sandiroqlashdan qo'li bo'shamas, do'konida bir soat ham, hatto, bir daqiqa ham o'tirolmas, otasi kiyim buyurtiruvchi biron mijoznikiga ketdi deguncha, do'konni tashlab, haligi sho'x bolalar bilan o'ynagani ketar ekan" [Dostoyevskiy 1996, 4-5] deb tanishtiradi.

Ertak, afsona, dostonlarda adabiy qahramonlarning bu tarzda sodda, oddiy gavdalantirilishi o'tmishda kishilarning borliq hodisalari va inson olami to'g'risidagi juda o'ziga xos tushuncha, tasavvurga ega bo'lishganidan dalolat beradi. Ularning "Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan" deb boshlanishi hamda

ularda hayot haqiqatiga mutlaqo mos kelmaydigan voqealarning naql qilinishi ham olis ajdodlarimiz hozirgi odamlardan ko'ra ancha ishonuvchan bo'lganini bildiradi. Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy dostonlari, Hofiz Sheroziy g'azallarida, Shekspir, Gyote tragediyalarida, Fyodor Dostoyevskiy, Lev Tolstoy romanlari, Anton Chexov, Ivan Bunin, Abdulla Qahhor hikoyalaridagi qahramonlar obrazi ertak, dostonlardagi qahramonlar obrazi bilan taqqoslansa, badiiy tafakkur inson timsolini gavdalantirishda uzoq asrlar mobaynida asta-sekinlik bilan o'zgarib, takomillashib borgani ayon bo'ladi.

Folklor asarlarida, qadimgi eposlarda adabiy qahramonlarning qiyofa, ko'rinishi ayrim mubolag'alar bilan tavsiflanib, ularning kechmishlari oddiygina bayon etiladi. Inson obrazini gavdalantirishda barcha xalqlar adabiyoti tarixida kuzatiladigan bu holat to'g'risida Abdurauf Fitrat bunday deydi: "Eski yozg'uvchilarimiz... bir hikoya yozganda "ammor uyyoni axbor va noqiloni osor andoq rivoyat qilurlarkim" deb hikoya qahramonlarining tug'ilish kunidan boshlab o'limiga qadar bo'lib o'tgan voqealarni bir yo'sunda, bir turli qilib qatorlab tizar edilar. Bu turli yozilgan hikoyalar, dostonlar bir turli, bir tusda, o'zgarishsiz, harakatsiz yurub borg'ani uchun o'quvchilarni bezdirar, miyaga og'irlik qiladir". Haqiqatan ham ertak, dostonlardagi qahramonlar obrazi XIX-XX asr adabiyotidagi adabiy qahramonlarga taqqoslansa, ularda inson olami, uning ruhiy kechinmalari, kayfiyat, holatlari shunchaki bayon qilingani ayon bo'ladi. Albatta, barcha asarlarda ham qahramonlar qiyofasi, ruhiy kechinmalari Fyodor Dostoyevskiy yoki Rabindranat Thokur romanlari yoki Ivan Buninning hikoyalaridagidek turli tashbeh, taqqoslashlar vositasida yorqin tasvirlanmaydi. Aksariyat asarlarda qahramonlarning holati, kechmish-kechirmishlari xuddi ertak, afsonalardagidek oddiygina qilib bayon etiladi. Jumladan, Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasida qahramonning ahvoli to'g'risida: "Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi-bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib, tolning xivchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi" [Qahhor. 1987, 289] deyilgan. Jimjimador, nozik, nafis tasvirlardan xoli bunday bayon shakli ertaklarda ham kuzatiladi. Jumladagi, "Malikayi Husnobod" ertagi: "Zamonlarning zamonida, qadimda bir zolim podshoh bor ekan. Podshohning bir qizi bo'lgan ekan. Onasi bir kambag'alning qizi ekan. Sohibjamolbibi

haddan ziyoda chiroyli, oy desa og'zi, kun desa ko'zi bor, shaq-shaqam jamoli o'n to'rt kechalik oyni xira qilar ekan. Suv ichsa tomog'idan, sabzi yesa biqinidan ko'rinar ekan..." [Sharq xalqlari ertaklari 1994, 12] deb boshlanadi.

Ertak, rivoyat, dostonlarda adabiy qahramonlar timsolida kishilar fe'l-atvorining muayyan jihati yoritilib, ular "oq" yoki "qora" bo'yoqlarda gavdalantiriladi. Ularda, asosan, podshohlar, vazirlar, qozilar, boshqa amaldorlar asosiy qahramon sifatida ko'rsatilgan hamda ular shafqatsiz, zolim, makkor, mansab-martaba, maishatga o'ch kimsa sifatida tavsiflanadi. "Malikayi Husnobod" ertagida ham boshdanoq podshohning zolimligi alohida ta'kidlanadi. Folklor asarlari va qadimgi eposlarda hukmdorlar, amaldorlarning asosiy qahramon qilib ko'rsatilishi azaldan ularga jamiyatning yuqori tabaqasi sifatida qarab kelinishi, ular hammaning diqqat markazida bo'lishi, ko'pchilik ularni o'zidan ustun deb bilib, havas qilishi bilan bog'liqdir. O'tmishda ham kishilar yuqori tabaqa vakillariga yaqinlashishga intilgan, har jihatdan ularga taassub qilgan. Azaldan podshohlar, vazirlar hayoti boshqalar uchun g'aroyib qiziqarli ko'ringan. Shuning uchun ular ko'pgina asarlarda asosiy qahramon sifatida ko'rsatilgan. Qizig'i shundaki, bu asarlarda asosiy e'tibor hukmdorlar, amaldorlar hayotidagi quvonch, shodliklarni emas, ziddiyat, fojialarni yoritishga qaratilgan. Chunki insonning asl qiyofasi, u shoh bo'ladimi yoki gado, mushkul vaziyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Odamlar qadimdan turmushdagi ko'pgina muammolar uchun hukmdorlar, amaldorlar aybdor. Turmushdagi jamiki norasolik, adolatsizlik amaldorlar va hukmdorlarning zimmasiga mas'uliyatni his qilmasligi, boshqalarning emas, o'zining manfaati, maishatini o'ylashidan kelib chiqadi, deb o'ylashgan. Shu tufayli ertak, dostonlarda yuqori tabaqa namoyandalarining shon-shuhrat, mansab-martaba, boylikka o'chligini ko'rsatish asosiy maqsadga aylangan. Aslida ham takabburlik, shuhratparastlik, mansabparastlik kabilar hukmdorlar, amaldorlar fe'l-atvorida muhim o'rin tutadi. Ularning turmush tarzini ushbu xususiyatlarda ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Hukmdorlar, amaldorlar fe'l-atvorida ayni xususiyatlar ustunligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Qadimgi eposlar va "Shohnoma"da ham Shekspir tragediyalari va "Xamsa" dostonlarida ham hukmdorlarning shu insoniy ojizligi ta'kidlanadi. Oybekning "Navoiy", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" romanlarida ayni shu muammo yoritiladi. Ertak, dostonlarda turli qahramonlarning kechmish-kechirmishlarini naql etish asosida ijobiy xulosa chiqarish asosiy

o'rin tutadi. "Bemor" singari asarlarda esa ziddiyatli voqealar ichida turgan qahramonning holat, kechinmalarini ko'rsatishga ko'proq e'tibor qilinadi. Jumladan, ushbu hikoyada qahramonlar holati quyidagi tarzda ko'rsatiladi: "To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, opasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hamma yoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: "Hey do'st shaydullo, banomi Olloh, sadaqa raddi balo, baqovli rasuli xudo...". Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi – bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

– Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, opasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin..." [Qahhor 1987, 290]. Hikoyaning ayni o'rinlari kishiga "Xo'rlangan va haqoratlanganlar", "Anna Karenina" singari mumtoz asarlar singari ta'sir ko'rsatadi. Chunki o'zbek adibi ushbu hikoyasida kambag'alligi tufayli nochor qolgan kishilarning ayanchli ahvolini o'ziga xos uslubda juda aniq gavdalantirgan. Abdulla Qahhorning "O'g'ri", "Anor", "Dahshat" hikoyalarda ham qahramonlar qismati orqali hayotda hamma ham e'tibor qilavermaydigan oddiy voqealar qiziqarli, sermazmun, hissiyotlarga boy qilib tasvirlanadi. Adib Qobil bobo, Turobjon, Unsin kabi qahramonlar timsolida ming-minglab kishilarning ayanchli ahvolini ko'rsatadi. Bu ajoyib asarlarni har gal mutolaa qilganda ularning yangi qirralari ochiladi. Ular chuqur insonparvarlik ruhiga yo'g'rilgan. Ushbu hikoyalarda muallifning o'ziga xos uslubi yorqin namoyon bo'lgan. O'quvchi "O'g'ri", "Anor", "Bemor", "Dahshat" kabi asarlar qahramonlari holatini his qilish orqali hayot ziddiyatlarini anglaydi. Adabiyotning ahamiyati ham shunda ko'rinadi. U turli adabiy qahramonlari orqali kishilarni tasavvur qilish, xayol surish, mushohada yuritib, o'z-o'zi bilan munozara qilishga undaydi hamda shu asosda o'zligini anglashga intilish hissini uyg'otadi.

Albatta, "Xo'rlangan va haqoratlanganlar", "Anna Karenina" kabi ko'p tarmoqli syujetga asoslangan asarlardagi batafsil tasvirlar "Bemor", "Anor" kabi hikoyalarga qaraganda adabiy qahramonlarning tashqi qiyofasi, xarakteri xususiyatlari, ular turgan

zamon va makon manzarasi to'g'risida kengroq tasavvur beradi. Ertak, dostonlardagi "Podshoh zolim, vazir dono, malika makkor, cho'pon dovyurak ekan" degan tavsiflar ularga qiyoslaganda bir qadar jo'n ko'rinadi. Chunki zolimlik, donolik, makkorlik yoki dovyuraklik kabi xususiyatlar oq, qora, qizil, sariq rang kabi ko'zga yaqqol tashlanib turmaydi. Ular kishilarning harakat, faoliyatida, boshqalar bilan muomala-munosabatida namoyon bo'ladi. "Gul" deganda ham birov qizil gulni, kimdir sariq, kimdir oq gulni xayoliga keltiradi. Yoki "piyola" so'zini talaffuz qilgan odam uning o'nlaracha xilidan qay birini nazardan tutganini hech kim aniq bilmaydi hamda u nazarda tutgan piyola boshqalar tasavvuridagi piyola bilan aynan bir xil bo'lmaydi. Chunki piyolaning chinni piyola, sopol piyola, paxta gulli piyola kabi bir qancha turlari va shakllari mavjud. Ertak, dostonlarda ham adabiy qahramonlarning "boy", "kambag'al", "zolim", "baxil", "saxiy" kabi sifatlar bilan jo'n, umumiy tavsiflanishi zamonlar o'tishi bilan kishilarning inson to'g'risidagi tasavvur, tushunchasini qanoatlantirmay qolgan. Balzak, Mopassan, Flober, Turgenev, Dostoyevskiy, Tolstoy, Thakur kabi adiblarning asarlarida adabiy qahramonlar tashqi qiyofasi, harakat, holatlari, o'y-kechinmalarining teran tasvirlanib, batafsil tahlil qilinishi badiiy tafakkurning o'sishi, inson dunyosini tushunishning teranlashishi natijasida yuzaga kelgan. Kutilmaganda, to'satdan sodir bo'ladigan, kishilarning istak-ifodasiga bog'liq bo'lmagan voqealar, uchrashuv, to'qnashuvlar tasodif sanaladi. Tasodiflar har bir kishining hayotida muhim rol o'ynaydi. Ular odamlarning bir maromda kechayotgan hayotida keskin burilishlar hosil qilib, chigal muammolarga duch qiladi va o'zining fe'l-a'moli, qilgan ishlari, hayot murakkabliklari xususida o'ylab ko'rishi, mushohada yuritishiga sabab bo'ladi. Adabiy asarlarlarda inson hayoti bilan bog'liq ana shu muhim, sirli hodisa qahramonlar olamiga "ko'chiriladi". Shuning uchun aksariyat folklor asarlari "bir kuni..." deb boshlanadi. Chunki har qanday voqea, jumladan, tasodif ham ma'lum bir zamonda, muayyan makonda ro'y beradi.

Taqdir kutilmaganda, g'alati tarzda odamlarni bir-biriga uchrashtirishi adabiy qahramonlarga ham "ko'chiriladi". Ya'ni adabiy qahramonlar tasodifan bir-biriga duch keladi yoki tasodifan arzimas bir voqea sabab yaqin kishilar bir-biridan uzoqlashib, ularning munosabatlari tamoman o'zgarib, g'aroyib kechmishlar boshlanadi. Odamlar hayotda taqdirning bu sirli "o'yin"ini dabdurustdan bo'lgani uchun ko'pincha sezmaydi, paytida payqamaydi. Ammo adabiy qahramonlar taqdirida tasodiflar muhim o'rin tutadi. Tasodiflar

tufayli ular hayotida turli burilishlar yuz beradi. “Alpomish” kabi xalq og’zaki ijodi namunalari, “Farhod va Shirin” singari mumtoz adabiyot asarlari bunga misol bo’ladi. Zamonaviy adabiyotda ham inson obrazi xuddi shu tarzda gavdalantiriladi. Chunki so’z san’atida qahramonlar obrazida inson va uning hayoti odatdagidan boshqacha, ta’sirchan ko’rsatiladi. Jumladan, tasodiflar qahramonlar hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, yaxlit syujet “zanjir”ini hosil qiladi. Unda turli paytda, turli joyda kechgan voqealar o’zaro tutashib ketadi. Adabiy qahramonlarning kechmish-kechirmishlarida inson hayotining turli jumboq, sir-sinoatlari ko’rsatiladi. “Tushuntirib berish qiyin-ku, lekin gohida voqealar bir-biriga to’g’ri kelib qoladi, – deydi mashhur adib Chingiz Aytmatov, – voqea ro’y bergan joy ham, vaqt ham, va eng muhimi, kimsalarning xatti-harakatlari ham to’qnashib, bularning bari taqdirni hech kutilmagan burilishlarga burib yuboradi”.

Borliqdagi hech bir narsa boshqasiga aynan o’xshamaydi. Odamlar ham xuddi shunday. Ular bo’y-basti, rang-ro’yi, qiyofa-ko’rinishi, fe’l-atvori jihatidan bir-biridan alohida ajralib turadi. Bu farq ularning xatti-harakatida ham yaqqol seziladi. Kimdir doim faol bo’ladi, doimo boshqalarning diqqatini jalb etadi. Aksariyat kishilar esa oddiy, kamtarona yashab o’tadi. Adabiy qahramonlar obrazini yaratishda ham hayotning ana shu qonuniyatidan kelib chiqiladi. Personajlarning ayrimlari yondosh, ba’zilari epizodik, bittasi yoki ikkitasi esa asosiy qahramon sifatida ko’rsatiladi. Xalq og’zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham xuddi shu kuzatiladi. Dostonlarda ham, roman, qissa, hikoya, drama, tragediyada ham yondosh, epizodik va asosiy qahramon bo’ladi. Butun diqqat-e’tibor asosiy qahramonga qaratiladi. Uning kechinmalari, xatti-harakatlari yondosh va epizodik qahramonlarga qaraganda kengroq ko’rsatiladi. Chingiz Aytmatovning aksariyat asarlari, jumladan, “Asrni qaritgan kun”, “Qiyomat”, “Oxir zamon nishonalari” romanlari asosida turli afsona va rivoyatlar turadi va adib ularni hozirgi davrning eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy muammolari bilan bog’laydi. Ulug’ adibning “Qulayotgan tog’lar” romanida ham dushmanlarning fitnasi tufayli bir-biriga yetisholmagan sevishtganlar to’g’risidagi g’aroyib afsonaga keng o’rin beriladi va “Bu dostonning bosh qahramoni, albatta, o’sha Mangu qayliq” deyiladi.

Shu boisdan tasodiflar insoniyatning orzu-xayollari aks etgan ertak, dostonlarda ham, hayot hodisalari haqqoniy ko’rsatilgan realistik asarlarda ham adabiy qahramonlarning xarakteri xususiyatlarini gavdalantirishda boshlang’ich nuqta, o’ziga xos

vosita vazifasini bajaradi. "Hikoyalarda "lekin birdaniga" so'zi tez-tez uchrab turadi, – deydi rus adibi A.P.Chexov. – Mualliflar shunday deyishga haqli, chunki turmushda tasodifiy hodisalar juda ko'p" [Chexov. 1957, 3]. Adabiyotshunos M.Baxtin ham tasodiflar adabiy syujet yo'nalishini belgilash va adabiy qahramonlar xarakteri xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etishini, bu folklordan yozma adabiyotga ko'chib o'tganligini antik davr adabiyoti namoyandalari – Petroniyning "Satirikon", Apuleyning "Oltin eshak" romanlari asosida tahlil qilib ko'rsatadi [Baxtin 1986, 148-182].

Hayotda ham kishilarning xarakteri to'satdan yuz beradigan hodisalarda ko'proq namoyon bo'ladi. Bunday paytda har qanday kishi nima qilishini bilmay, dovdirab qoladi. Adabiy qahramonlar timsolida insonning murakkab dunyosini gavdalandirishda hayotning ana shu g'aroyib sir-jumbog'i muhim maydon vazifasini bajaradi. Shuning uchun har bir asarda adabiy qahramon dunyosini ochish ayni nuqtadan boshlanadi. O'ziga xos ushbu start chizig'i ertak, rivoyat, dostonlarda "bir kuni", "kutilmaganda", "to'satdan" deyiladi. Folklor asarlarida undan avval, albatta, qahramonning nomi, kasb-kori, ijtimoiy ahvoli, yoshi ma'lum qilinib, voqea kechgan makon va zamon to'g'risida umumiy ma'lumotlar beriladi. Masalan, "Alpomish" dostoni: "Burun o'tgan zamonda, o'n olti urug' qo'ng'iroq elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'in ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi. Boybo'ri bilan Boysari – ikkovi katta bo'ldi. Boysari boy edi, Boybo'ri esa shoy (shoh) edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo'ldi" deb boshlanadi.

Qadimgi yunon tragediyalarida esa sahnaga dastlab xor chiqqan. Xordagilar qahramon qismatini fojeasini ifoda etadigan ohangda qo'shiq kuylagan. Bu mungli yoki jo'shqin, shiddatli qo'shiq ohangi tomoshabinlarni sahnada namoyish etiladigan fojiali voqealarga ruhan tayyorlagan. Chunki Esxil (mil.avv. 325-456-yillar), Sofokl (mil.avv. 496-409-yillar) kabi dramaturglarning "Zanjirband Prometey", "Shoh Edip" kabi tragediyalardagi qahramonlar qismati benihoya fojiali. Prometey va shoh Edip jahon adabiyotidagi qismati eng fojeali adabiy qahramondir. Afsonalar asosida yaratilgan ushbu qahramonlar qismatida inson hayoti g'oyat ta'sirchan gavdalandirilgan. Prometey arshi a'lo mehrobidan odamlarga olovni o'g'irlab keltirib, kishilarga dehqonchilik qilish, yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish, vaqtni o'lchash, imorat-koshonalar qurish kabilarni o'rgatgani uchun xudolar qahriga uchraydi. Shuning uchun u

Yerdagi eng baland toqqa eltib, qoyaga zanjirband qilinadi. Har kuni burgutlar kelib, uning ko'ragini yorib, jigarini yeb ketadi. Shunda ham Prometey ma'budlarga itoat etmaydi. Odamlarni omilkor, qudratli qilib qo'ygan Prometey, oxir-oqibatda, tog' qoyasi bilan birga, Yerning qa'riga kirib ketadi. Shoh Edip esa o'n besh yil Fivaga hukmdorlik qilib, ikki o'g'il, ikki qiz ko'radi. Ammo kutilmaganda mamlakatga dahshatli tabiiy ofat yopirilib, ekin-tikin qurib, hayvonlar qiriladi. Buning sababini surishtirishsa, shoh Edip asosiy gunohkor ekanligi ayon bo'ladi. Lekin u o'sha paytgacha o'z otasini o'ldirib, onasiga uylanib, tuzatib bo'lmas gunohga botganini bilmaydi. To'satdan ro'y bergan tasodif shoh Edipning kimligini ma'lum qiladi.

“Ali bobo va qirq qaroqchi” ertagida ham tog'dan o'tin yig'ib, bozorga eltib sotib, tirikchiligini arang o'tkazib yurgan Ali bobo kunlardan bir kuni to'satdan qaroqchilar xazina yashirib qo'ygan joyni bilib qolgani to'g'risida naql qilinadi [Arab xalq ertaklari. 1990, 57]. “O'tkan kunlar” romani qahramoni Otabek Marg'ilonga kelganining ikkinchi kunida poyafzal bozoriga tutash hovli tashqarisidan oqib o'tgan ariqdan tahoratga suv olmoqchi bo'lganida “shu vaqt tasodifan nima yumush bilandir mehmonxonadan chiqib keluvchi farishtaga ko'zi tushadi”. Abdulla Qodiriy bu tasodifiy uchrashuvni: “Kumush ham ariq yoqasiga kelib to'xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g'ayriixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan bir muncha vaqt ko'z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho'chigandek bo'ldi, yengilgina bir harakat bilan o'zini ichkari yo'lak tomonga burdi. Bu burilishdan uning orqa-o'ngini tutib yotgan qirq kokillari to'lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo'l ustidan ariq bo'yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo'ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi... Kumush ichkariga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa yerga mixlangandek qotib turdi... Oxirda ko'zini katta ochib, o'tgan daqiqada uchrashgani xayoliy go'zalni istab xayollandi. Biroq haqiqat boshqacha edi. Tahorat olmoq uchun ariq bo'yiga o'tirdi, ammo ko'zi xayol yashiringan yo'lakda edi. Tahoratlanib bo'ldi, yana ko'zini o'sha tarafdin uzolmadi. Artinib olgandan keyin yana oyoq ustida to'xtab qoldi. Yashiringan go'zal ikkinchi qayta ko'rinmadi, ehtimolki, Otabekni ipsiz bog'lab, o'zi qaysi burchakdan bo'lsa ham asirini tomosha qilar edi. Ko'p kutdi, asr namozini qazo qilib, kuch bilan qutidor uyidan chiqdi va shu daqiqadan boshlab, unda muhabbat mojarosi tug'ilgan edi” [Qodiriy. 1974, 11-98] deb tasvirlanadi. Asr namozini ado etish niyatida tahoratlanib, namozini o'qiyolmay qazo qilgani Otabekning favqulodda holatga tushib,

o'zini unutib qo'yganini bildiradi. Inson tabiatining bu sirli hodisasi adabiyot asarlariga azaldan asosiy mavzu bo'lib keladi. Bu qadimiy mavzu benihoya cheksiz, hayotning barcha muammolari bevosita u bilan bog'lanadi. Muhabbat mojarolari aralashmasa, har qanday jiddiy muammo tussiz, ta'sirsiz bo'lib qoladi. Inson qalbining bu sirli-sehrli jumbog'i – muhabbat to'g'risida hamisha gapiriladi. Lekin u hech kimni g'ashlantirmaydi. Aksincha hammani hamisha qiziqtiradi. Shuning uchun Artur Shopengauer: "Har qanday dramatik asarning: xoh tragik (fojiaiy), xoh komik (kulguli), xoh romantik, xoh mumtoz asar bo'lsin, qahramonlari hindistonlikmi, ovro'polikmi, bundan qat'i nazar, asosiy mazmuni – qahramonning sevgilisiga intilishidir. Lirik she'riyatning yarmidan ko'pining syujeti shundan iborat... Asarlar bir mavzuda yo ko'p qirrali bo'ladimi, barchasida sevgi ehtirolari tasvirlanadi" deydi.

Tasodifiy uchrashuvlar odamlarni bir-biri bilan bog'lagani singari ular adabiy qahramonlarni ham g'ayriixtiyoriy tarzda yaqinlashtiradi. Ular bu uchrashuvga befarq bo'lisholmaydi, uni unutisholmaydi. Qahramonlar ko'nglida dastlabki uchrashuvdayoq bir-biriga nisbatan intilish, yaqinlashish, xayrixohlik yoki ichki adovat, g'ashlanish, hasad, jirkanish kabi hislar paydo bo'ladi. "O'tkan kunlar" romani qahramonlari Otabek va Kumushning tasodifiy uchrashuvi ular qalbida ichki intilishni tug'diradi. Bir og'iz gaplashmagan, so'zlashmagan, mutlaqo tanimagan, bilmagan qizga Otabek mixlangandek qarab qoladi, uni yana qayta ko'rish umidida asr namozini unutib qo'yadi. Qiz ko'rinmagach, o'zini kuch bilan majburlab, qutidorning hovlisidan chiqadi. Lekin u halovatidan ayriladi. Tasodifiy uchrashuv tufayli Otabekning hayotida yangi davr boshlanadi. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to'xtagan yigitga beixtiyor qarab qoladi. Nimadandir cho'chigandek yengil harakat bilan o'zini ichkariga olayotib, orqasiga qaraydi-da, yigitga tabassum hadya qiladi. Vaholanki, Kumush bu "chingilin yigit"ni mutlaqo tanimaydi. U haqda eshitmagan ham, uni bilmaydi ham. Chunki "chingilin yigit" Otabek – toshkentlik. U Marg'ilonda avval bo'lmagan Abdulla Qodiriy romanining eng qiziqarli sahifalari Otabek va Kumushning ilk uchrashuvi tasviridan boshlanadi. Syujetning boshqa o'rinlarida ham ushbu uchrashuv eslatilib, Otabek va Kumushning ruhiy holati, kayfiyati ko'rsatiladi. Adib bu ikki adabiy qahramoni timsolida inson tabiatining sirli jumbog'iga e'tibor qaratib, bu g'aroyib olamning maftunkor manzaralarini mahorat bilan chizib ko'rsatadi. Otabek va Kumush timsolida inson olamining alomat, g'aroyib jumbog'i ta'sirchan gavalantirilgani bois

“O’tkan kunlar” romani, u asosida yaratilgan film, spektakllar, qancha yillar o’tsa-da, kishilarni maftun etib keladi. Aslida ham insonning qalbida muhabbat hissi to’satdan, kutilmaganda tug’iladi. Mohiyati saralash, tanlashdan iborat bu sirli jarayonda yigit va qizning qiyofa-ko’rinishi bir-biriga barcha omillardan ko’ra ko’proq ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriy qahramonlari obrazini yaratishda inson ruhiyatining ana shu jihatiga e’tibor qaratib, Otabek va Kumushning portretini bir necha o’rinda chizib ko’rsatadi. Adib Kumush va Otabek bir-birini gap-so’zi, kiyim-libosi yoki biror bir ko’mak, yordam ko’rsatgani uchun emas, balki, yuz-ko’zi, qomatining chiroyliligi bilan maftun etgani romanning ko’p o’rinlarida ta’kidlaydi. Inson tabiatining bu jihati xususida Xose Ortega-i-Gasset: “Nigohi xushro’y raftorga tushgani hamono hissiyoti jo’shqin yigit dastlab mahliyo bo’ladi. Mahliyolik g’alayoni natijasida ilk bezovtalik – unga ixtiyorsiz talpinish sodir bo’ladi. Bu shunchalik g’ayriixtiyoriy va g’ayrishuuriy munosabatki, hatto, din ham uni gunoh deb e’tirof etishga jur’at qilmagan” deydi [Gasset. 2008, 138].

Kishilar bir-birida dastlab qanday taassurot qoldirsa, u ko’pincha o’zgarishsiz qoladi. Adabiyotda inson obrazini gavdalantirishda ham aksariyat hollarda shu haqiqatdan kelib chiqiladi. Shuning uchun ko’pgina asarlarda adabiy qahramonlar ilk uchrashganda bir-birida qanday munosabat uyg’otsa, shu taassurot ularning keyingi aloqasini belgilab beradi. Bu adabiy asarda zamon va makonga badiiy tus berilib, uning ixchamlashtirilishi, vaqt, masofa kabilarning maqsadga muvofiq tarzda siqishtirilishidan ham kelib chiqadi. Qadimiy ertak, dostonlarda ham, milliy adabiyot mumtoz asarlarida ham shu narsa yaqqol seziladi. “O’tkan kunlar” romani qahramonlari Otabek va Homid ilk duch kelgan paytdayoq bir-birini yoqtirmaydi. Otabek: “Oladigan xotiningiz sizga muvofiq bo’lishi barobarida, er ham xotinga muvofiq bo’lsin” desa, Homid “Xotiniga muvofiq bo’lish va bo’lmaslikning uncha keragi yo’q. Xotinlarga “er” degan ismning o’zi kifoya...” [Qodiriy 1974, 11] deb e’tiroz bildiradi. Ular orasidagi qarama-qarshilik shu tarzda boshlanadi.

Kutilmagan uchrashuvlar kishilar hayotida hal qiluvchi omilga aylanishi Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida ham ko’rsatiladi. “O’tkan kunlar” asari syujetining ayrim o’rinlarida ertak, dostonlarga xos tasodiflar sezilsa, Abdulla Qahhor romanidagi tasodiflar hayot haqiqatiga aynan mos keladi. Ya’ni “Sarob”da qahramonlarning bir-biri bilan tanishuvi, o’zaro munosabatlari aniq, ishonarli hayotiy voqealar asosida ko’rsatilib, ularning ichki olami, ruhiy kechinmalarini ma’lum qilish orqali mantiqiy asoslanadi.

“Sarob”ning bosh qahramonlari Rahimjon Saidiy va Munisxonning ilk uchrashuvi ham Otabek bilan Kumushning bir-biriga duch kelishi singari tasodifan ro’y beradi. Bu kutilmagan to’qnashuv Saidiy bilan Munisxonni beixtiyor bir-biriga yaqinlashtiradi. “Sarob” romanida qahramonlarning bir-biriga dastlabki duch kelishi: “Qiz eshik oldiga yuragi betlamayroq keldi, uning qabzasidan ushlab asta tortishi naryoqdan birovning qattiq itargan paytiga to’g’ri keldi: eshik oyog’ining uchiga tegib qopchigandan so’ng chetlanib, ichkaridan chiqqan yigitga yo’l berdi. Yigit darrov butun vujudi bilan taassuf bildirib, afv so’radi. Kiyimidan yigit ko’proq studentga o’xshar edi. U eshik yonida parishon turgan qizga yana bir qaradida, salmoqli qadam tashlab, zalning to’riga tomon yurdi. Qiz qiya qolgan eshikni sekin zichladi-da, yigitning ketidan qarab qoldi; keyin o’ng’aysizlana-o’ng’aysizlana uning orqasidan ketdi... Qiz Saidiydan o’z ishiga doir ko’p ma’lumotlar umidvor, ammo so’ramasdi. Saidiy esa undan nima umidvor ekanini o’zi ham bilmas, ammo uning umid qilgan narsasinigina emas, butun olamni berib, hech narsa talab qilmaydigan bir holatda edi... Vujudi mo’jiza, har bir so’zi, harakati hayotga chaqirib turgan shu qizga hamdard bo’lish uchun u har narsaga tayyor edi... Qizning lab tishlab, bosh chayqashi uning ko’z oldidan, mayin tovushi qulog’idan ketmas edi. Uning boshidagi fikrlar aralash-quralash bo’lib ketdi; bularning ichidan birortasini ajratib olsa, o’sha ham xayolga aylanib ketar edi: “Shu qizning boshiga bir falokat tushsa-da, qutqaradigan kishi yagona men bo’lsam”, der edi” [Qahhor. 1987, 34-335] deb tasvirlanadi.

Inson tabiatining bu sirli jumbog’i har bir asarda o’ziga xos tarzda talqin etiladi. “Sarob” romanida ham xuddi Abdulla Qodiriy asaridagi singari kishilarni hamisha qiziqtiradigan shu hodisaga e’tibor qaratiladi. Lekin Abdulla Qahhor inson tabiatidagi bu tilsimni “O’tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlaridan farqli tarzda yangi zamon, yangicha munosabatlar fonida ko’rsatadi. Abdulla Qodiriy qahramonlari timsolida xonlar zamonidagi odamlar tasvirlansa, “Sarob”da XX asr 20-30-yillaridagi ijtimoiy o’zgarishlar, shu davr kishilari o’rtasidagi munosabatlari xususida so’z yuritiladi. “O’tkan kunlar”da Otabek va Kumush, “Mehrobdan chayon”da Anvar va Ra’no muhabbati barcha voqealarni o’zaro bog’lab tursa, “Sarob” romanida Saidiy va Munisxon o’rtasidagi munosabatlar syujet zanjirini tutashtiruvchi zarur halqa sanaladi. Abdulla Qahhor ham xuddi “O’tkan kunlar” muallifi singari kishida muhabbat hissi kutilmaganda paydo bo’lishini ta’kidlaydi va bu holatni Saidiy va Munisxonning ruhiy kechinmalari asosida ko’rsatadi. Artur

Shopengauer sevgi hissiyoti sirlari xususida so'z yuritar ekan: "Sevib qolish uchun ko'p vaqt kerak emas, fikr yuritib, tanlab o'tirish ham shart emas, faqat birinchi ko'rishdayoq nigohida o'zaro munosiblik, hamdardlik paydo bo'lishi zarur... Sevgi yovuz iblis kabi hamma narsani ostin-ustun qiladi, chalkashtiradi, qulatadi... Sevgi eng muhim ishlar va hodisalarga salbiy ta'sir qiladi, har soatda eng jiddiy mashg'ulotlardan uzib qo'yadi" [Shopengauer. 2008, 191] deydi. Adabiyotdagi aksariyat asarlarni, jumladan, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" va "Sarob" romanlarini kishilarga boshqa barcha narsalardan ko'ra kuchli ta'sir qiladigan, ularni turli holatlarga soladigan muhabbat mavzusi o'zaro birlashtirib turadi. Ularda sevgi zavqi inson ruhining yashirin jumbog'i, anglab bo'lmas tilsimi ekanligi ko'rsatiladi. "O'tkan kunlar" ham, "Sarob" romanida ham adabiy qahramonlar xarakteri to'satdan sodir bo'ladigan voqealar jarayonida namoyon bo'ladi. Kutilmaganda yuz bergan uchrashuv ularning bir me'yorda sokin kechayotgan hayot tarzini o'zgartirib yuboradi. Ular bunday paytda qarama-qarshi o'y-kechinmalar girdobiga tushib qolishadi, ikkilanishadi, favqulodda shijoat, jasorat ham ko'rsatishadi. Chunki ular tushib qolgan vaziyat shuni taqozo qiladi. Bu keskin, kutilmagan harakatlarda ularning yashirin ichki olami ochiladi.

Tasodifiylar qahramonlar xarakterining yangi qirralarini ochib berishi "O'tkan kunlar" romanida ham yorqin ko'rinadi. Asar qahramoni Kumush urf-odatlar iskanjasida, to'rt devor ichida yashaydi va u buni tabiiy hol deb biladi. Lekin eri va otasi tuhmat tufayli zindonga tushganida tasodifan Otabekka yuborilgan maktubni topib olgach, da'atan dadil harakat qilib, ularni o'limdan saqlab qoladi. Asarning ayni o'rnida adib ertak, dostonlarga xos yo'l tutadi. Kumush Otabekning eski kamzuli cho'ntagidan maktub topib oladi. Maktubda Otabek va qutidorning oqlanishiga asos bo'la oladigan mulohazalar bayon qilingan edi. O'quvchi eskigina paranjiga o'ranib, hayajon va entikish bilan qo'rboshi mahkamasiga kirib kelgan Kumushning favqulodda shijoatidan beixtiyor mamnun bo'lib ketadi. Romanda qayd etilganidek, adabiy qahramonni "najot farishtasi" sifatida namoyon qiladigan ushbu badiiy shartlilik kitobxonga malol kelmaydi. Abdulla Qodiriy tarixiy mavzudagi har ikkala romanida badiiy shartlilikdan samarali foydalanadi. U qahramonlar o'rtasidagi to'qnashuv eng keskinlashgan vaziyatlarda syujet yo'nalishida badiiy shartlilik asosida zarur burilishlar hosil qilib, uning keyingi rivojini ta'minlashga erishadi. Shu boisdan muallifning real voqelikni bunday aylanib o'tishi jiddiy e'tiroz uyg'otmaydi. Aslida ham hech bir

adabiy asarda real voqelik o'z holicha gavdalantirilmaydi. Aksariyat asarlarda hayot voqeligidan chekinish orqali syujet yo'nalishida yangi tarmoqlar hosil qilinadi. Badiiy shartlilik asosida yaratiladigan bunday burilishlar ko'proq qahramonlar xarakterining yangi qirralarini ko'rsatish maqsadida qilinadi. Rabindranat Thokurning "Halokat" romani qahramoni Kamola ham xuddi "O'tkan kunlar" qahramoni Kumush singari urf-odatlarga qat'iy amal qiladi. To'y kuni tasodifan daryoda ro'y bergan to'fon tufayli uning taqdiri tamoman chalkashib ketadi. Kamola uni daryo qirg'og'ida hushsiz topib olgan Romeshni eri deb bilib, u bilan yashay boshlaydi. Romeshning qismati ham Kamolaniki singari chalkash. Kamola tasodifan Romeshning sevgan qizi Xemnoliniga yozgan maktubni ko'rib qoladi va asl haqiqatni bilib, uydan chiqib ketadi. Chunki hindlarning qadimiy urf-odatlariga ko'ra, xotin kishining begona kimsa bilan hamxona bo'lishi sharmandalik hisoblanadi va bundan so'ng erining uyi eshiklari bu ayol uchun abadiy berkiladi. Shuning uchun Kamola o'zini o'ldirishga ahd qiladi. Lekin yana tasodif uni omon saqlab qoladi va eri bilan duch keltiradi. "O'tkan kunlar" qahramoni Otabek ham tasodif tufayli o'zining dushmanlarini bilib, ularning mash'um rejasidan voqif bo'ladi. Otabekning oshiq bo'lganligini Hasanali ham tasodifan bilib qoladi. Lekin Rabindranat Thakur yoki Abdulla Qodiriy romanlarida qahramonlar o'rtasidagi munosabat detektiv asarlardagi kabi taassurot tug'dirmaydi. Sarguzasht-dedektiv asarlarda kutilmaganda yuz beradigan uchrashuv, to'qnashuvlar voqealarning keskinlashishi, shiddatli tus olishini ta'minlaydi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarida esa tasodiflar qahramonlar xakteri qirralarining yangi jihatlarini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Kutilmaganda sodir bo'lgan voqealar tufayli kishilarning bir maromda kechayotgan turmush tarzi o'zgaradi va ular o'z hayoti, kechmish-kechirmishlari haqida o'ylashga, mushohada yuritishga majbur bo'ladi. Bunday paytda odam o'zini o'zi sud qilib, u ham savol beruvchi, ham javob beruvchiga aylanadi va o'zidan hech narsani yashirolmasligidan qiynaladi. "Jinoyat va jazo", "Telba" singari asarlarda inson obrazini gavdalantirishda ana shu jarayon diqqat markaziga qo'yiladi. Fyodor Dostoyevskiyning ushbu asarlaridagi qahramonlarning o'z-o'zi bilan kurashi ko'rsatilgan o'rinlar kitobxonlarning o'zi haqidagi, umuman, inson murakkab tilsim ekanligi xususidagi, har bir kishining hayoti qarama-qarshiliklarga to'la bo'lishi to'g'risidagi tasavvurini teranlashtiradi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Kecha va kunduz", "Sarob", "Ulug'bek xazinasi",

“Ko’hna dunyo” singari o‘zbek adabiyoti namunalari ham ayni shu jihati bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.

Adabiy qahramonlar timsolida insonning ichki dunyosini ochish, uning ziddiyatli o‘y-mushohadalarini ko‘rsatishda kutilmaganda ro‘y beradigan tasodiflar o‘ziga xos “ochqich” vazifasini bajarishi hayot haqiqatiga har jihatdan to‘g‘ri keladi. Chunki to‘satdan sodir bo‘ladigan voqealar kishilarni sergak torttirib, faol bo‘lishga majbur qiladi. O‘sha paytda odam ma‘lum fursat dovdiraganday bo‘ladi-yu, so‘ng zudlik bilan muammoni hal qilish choralarini izlashga tushib ketadi. Kutilmagan tasodifiy voqealar ro‘y berganda hech kim qo‘l qovushtirib, hech narsa haqida o‘ylamasdan jimgina o‘tirolmaydi. Chunki tasodiflar hamisha kishilarning odatdagidan chuqurroq fikr yuritishi, harakat qilishi, intilishi uchun turtki beradi. Adabiy qahramonlar obrazini gavdalandirishda ana shu haqiqatdan kelib chiqiladi. Tasodiflar adabiy qahramonlar hayotida burilishlar yasaydi. “O‘tkan kunlar” romanida sirli ariq bo‘yida tasodifiy uchrashuv bo‘lmaganida Otabek bilan Kumush bir-biriga duch kelmasdi. Roman syujetidagi barcha voqealar qahramonlar o‘rtasidagi shu tasodif tufayli boshlanadi. “Alpomish” dostonida ham Qaldirg‘och Barchin yuborgan maktubni sandiqdan tasodifan topib olmaganida va akasiga ta’na-malomat so‘zlar aytib, yo‘lga solmaganida, Alpomish qalmoqlar yurtiga bormas, Qorajonday qadrdon do‘st topolmas, Ko‘kaldosh singari pahlavonlarni yengib, Barchinga uylanib, bo‘linib ketgan elni birlashtiroldi edi. Alpomish Barchinning: “Oltoychalik yo‘lga keldim, to‘qson alpda toy-talashda qoldim, olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, kelmasa, javobimni bersin”, deb yozgan xatini o‘qib ko‘rib: “Oltoychalik yo‘l bo‘lsa, qalmoqning elida bo‘lsa, zo‘r yovning qo‘lida bo‘lsa, bir xotin olamiz, deb sandirab o‘lamizmi”, deb xatni tizzasining ostiga bosib o‘tirib oladi [Alpomish 1999, 122]. Qaldirg‘och:

*Har kim o‘z elida bekmi, to‘rami,
Nar-modalar sendan kamroq bo‘lami,
Mardning yori toy-talashda qolami?*

deb achchiq-achchiq so‘zlar aytganidan keyin u o‘zini o‘nglab, yo‘lga tushadi.

“Xamsa” dostonlari qahramonlari taqdirida ham tasodiflar muhim o‘rinda tutadi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ham bu aniq ko‘rinadi. Hoqon shahzoda Farhodni saltanat xazinasiga olib kiradi. Farhod son-sanoqsiz boyliklar orasida billurdan yasalgan g‘aroyib sandiqni ko‘rib qoladi. U sandiq sirini bilishga qiziqib, qulfni ochishlarini buyuradi. Hoqon: “Bu sandiqning kaliti

yo‘q” desa ham Farhod:

Har ishki qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod [Navoiy 2006, 88].

deb qattiq turib oladi. Sandiqni ochishsa, undan quyosh yanglig‘ ko‘zgu chiqadi. Ko‘zgu orqasiga kim unga boqsa, o‘zining kelajakdagi hayotini ko‘rishi yozib qo‘yilgan bo‘ladi. Farhod ko‘zguga qarab, o‘z qismatini bilib oladi... Agar hoqon o‘g‘li Farhodni xursand qilish uchun xazinaga olib kirmaganida, u sirli sandiqni ko‘rmas edi. Farhodning otasi voqealarning bu tarzda kechishini bilganida, tabiiyki, aslo o‘g‘liga xazinani ko‘rsatmas edi. Tasodif hoqonni o‘jiz qoldirib, Farhodni tahlikaga to‘la taqdir yo‘liga boshlaydi.

“Iliyada” va “Odisseya”, “Ramayana” va “Mahobxorat”, “Alpomish” va “Manas”, “Zanjirband Prometey” va “Shoh Edip”, “Shohnoma” va “Xamsa”lar, “Ilohiy komediya” va “Faust” singari o‘tkir dramatik syujetli asarlar adabiyotda azaldan insonning ta’sirchan obrazini yaratishga intilish kuchli bo‘lganidan, buning uchun tasodiflar muhim asos qilib olinganidan dalolat beradi. Aslida ham kishilar borliqdagi barcha narsalardan ko‘ra bir-birlaridan ko‘proq ta’sirlanishadi va ularni ko‘pincha tasodiflar o‘zaro yaqinlashtiradi. Shu boisdan inson obrazi san’atning barcha turlaridan ko‘ra adabiyotda mukammal aks etadi. U o‘zining ko‘p qirraliligi: muayyan zamon va makonda harakat jarayonida ko‘rsatilishi, qiyofa-ko‘rinishining turli taqqoslar asosida tasvirlanishi, muloqot, munosabatlarning ma’lum qilinishi bilan doimo diqqatni jalb qiladi.

Inson obrazi ta’sirchan aks ettirilgan aksariyat asarlarda syujet tizimidagi tugun kutilmagan tasodiflarni ma’lum qilish bilan boshlanadi va aynan ular “sahna”ga turli qahramonlarni olib chiqadi hamda asosiy qahramonlarning o‘ziga xos xarakteri xususiyatlari ochilishiga imkoniyat yaratadi. Tasodiflarning bu kabi ahamiyatli jihatlari folklor asarlarida ham, turli janrdagi zamonaviy asarlarda ham yaqqol seziladi. Tasodiflarning adabiy qahramonlar timsolida insonning tashqi va ichki dunyosini namoyish qilishdagi eng muhim jihati ularning turli ziddiyat, to‘qnashuvlarni boshlab berishida namoyon bo‘ladi. Hayotda ham kishilarning boshqalar va o‘z-o‘zi bilan munozarasi o‘z-o‘zidan emas, kutilmagan turli tasodiflar tufayli ro‘y beradi. Kutilmaganda sodir bo‘lgan momaqaldiroq, chaqmoq, dovul kabi tabiat hodisalarini kuzatish ham kishilarda turli mushohadalar tug‘diradi va xayol-tasavvurda turli shakl-shamoyillar hosil qiladi.

Adabiy qahramonlarning turli vaziyatdagi qiyofa-ko‘rinishi, o‘y-mushohadalari, urinish, intilishlari kitobxonlar,

tomoshabinlarning inson olami to'g'risidagi, hayot chigalliklari haqidagi tasavvurini teranlashtirib, ularning o'z-o'zini va bir-birini bilib olishi, anglashi uchun o'ziga xos vositaga aylanadi. Garchi har bir badiiy asar o'z davriga, o'z xalqiga, muayyan muhitga daxldor sanalsada, ulardagi turfa xil adabiy qahramonlar hamisha boshqalar qalbi va ongu tafakkuriga ta'sir etadi. Bunga makon va zamon to'sqinlik qilolmaydi. Chunki "Iliada", "Odisseya", "Ramayana", "Mahobxorat", "Alpomish"dagi qahramonlarning yoki Shoh Edipning kechmish-kechirmishlari, iztiroblari, o'y-kechinmalari bugungi axborot asri odamlarini ham befarq qoldirmayotgani yoki Fyodor Dostoyevskiy kabi adiblar asarlariga qiziqish tobora ortib borayotgani, ayni asarlar asosida film, spektakllar, tasviriy san'at asarlari yaratilayotgani shundan dalolat beradi. Chunki insoniyat hayoti hamisha muhabbat va nafrat, havas va hasad, quvonch va qayg'u bilan kechadi. Adabiy qahramonlar timsolida inson obrazini gavdalantirish orqali hayotning mana shu mangu jumbog'i ko'rsatiladi.

Adabiy qahramonlar ijodkor uchun hayot to'g'risidagi mu-shohadalarini bildirish vositasi sanaladi. U turli dunyoqarashga ega qahramonlar yaratish orqali o'zining Odam va olam to'g'risidagi o'y-kechinmalarini, ijtimoiy o'zgarishlarga munosabatini bildiradi. Buning uchun u turli hayot hodisalarini qalamga olib, har xil odamlarni ko'rsatadi. "Xamsa" dostonlari, Shekspir tragediyalaridagi har bir qahramonda hayotdagi turfa xil kishilarning qiyofasi, xarakteri aks etadi. Yoki Abdulla Qodiriy romanlari, Abdulla Qahhor hikoyalari, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo"sidagi qahramonlarning o'zaro munosabatlarida ham hayotning turfa xil ziddiyatlarga to'la manzarasi gavdalantiriladi. Odam tevarakatrofidagi turli voqealardan, boshqalarning boshiga tushgan baxtli-baxtsiz hodisalardan beixtiyor ta'sirlanadi. Adabiy qahramonlar ham o'zining kechmish-kechirmishlari, o'y-mushohadalari, o'zaro bahs-munozaralari bilan kishining ong-tafakkuri, hissiyotlariga ta'sir o'tkazadi. Har bir ijodkor aynan shuni maqsad qiladi. U qahramonlari hayotini tasvirlash orqali boshqalarga ta'sir ko'rsatishga, ularda o'z turmushi to'g'risida fikr uyg'otishga intiladi. Shu boisdan Abdurauf Fitrat: "Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir" [Fitrat. 2006, 13] deydi.

Asarlarda adabiy qahramonlarning kechmish-kechirmishlari, o'zaro munosabatlari misolida kishilarning fe'l-atvori, insoniy fazilatlar va takabburlik, ta'magirlik, maishatparastlik singari odamni halokatga eltuvchi illatlar xususida so'z yuritiladi. "Hamlet",

“Jinoyat va jazo”, “Anna Karenina” singari asarlar bunga misol bo’la oladi. Bu asarlarda har bir kishi o’zining qilmishlari uchun, albatta, javob berishiga to’g’ri kelishi, hech bir qabihlik fosh bo’lmasdan qolmasligi ta’kidlanadi.

Inson obrazi adabiyotda azaldan romantizm va realizm ijodiy uslubida yaratib kelinadi. Boshqa barcha ijodiy uslub, yo’nalishlarning zaminida adabiyotdagi ana shu ikki an’anaviy ijodiy uslub turadi. Inson obrazini gavdalandirishda Sharq mumtoz adabiyotida romantizm, G’arb klassik adabiyotida esa realizm uslubi ustunlik qiladi. Chunki Sharqda adabiyot azaldan o’zida falsafa, din va tasavvuf, axloq kabilarni mujassam etgan. Shuning uchun Firdavsiy, Hofiz, Nizomiy, Navoiy singari mutafakkirlar Rustam, Farhod kabi romantik qahramonlar obrazini yaratib, ularda xalqning orzu-armonlari, ezgulikka intilishini ifodalagan. Navoiy “Xamsa”sidagi aksariyat qahramonlar obrazi romantik bo’yoqlarda gavdalandirilgan. Ularda ulug’ shoirning asl inson – komil inson to’g’risidagi tasavvuri ifodalangan. “Xo’rlangan va haqoratlanganlar”, “Jinoyat va jazo”, “Telba” (F.Dostoyevskiy) kabi asarlar qahramonlari qiyofasida esa insonning asl holati – hayotdagi qiyofasi aks ettirilib, har bir odam tilsim, jumboq ekanligi ko’rsatilgan.

Asarlarda inson timsoli – adabiy qahramonlar uch xil ko’rinishda: asosiy, yondosh va epizodik qahramon sifatida gavdalandiriladi. Asosiy qahramon qalamga olinayotgan voqealar markazida turadi. Epik va drama turidagi asarlarda syujetning barcha tarmoqlari asosiy qahramon faoliyati orqali o’zaro tutashadi. “Alpomish”da Alpomish, “Shohnoma”da Rustam, “Farhod va Shirin”da Farhod, “Saddi Iskandariy”da Iskandar, “O’tkan kunlar”da Otabek, “O’g’ri”da Qobil bobo asosiy qahramon sanaladi. Asosiy qahramon xarakteri yondosh va epizodik qahramonlarga qaraganda kengroq yoritiladi. Yondosh va epizodik qahramonlar asosiy qahramon obrazini yorqin ko’rsatishda zarur vosita, muhim omil vazifasini bajaradi. “O’tkan kunlar” romanida Otabek asosiy qahramon, Yusufbek hoji, O’zbek oyim, Homid, Hasanali kabilar yondosh qahramon, To’ybeka, Ali, To’la aka esa epizodik qahramondir. Asarda ular o’zaro birlashib, inson olami murakkabliklari to’g’risida tasavvur beradi. Hayotda ham kishilar qiyofasi, xatti-harakatlari, ijtimoiy ahvoli, aql-tafakkur darajasi jihatidan birbiridan farq qiladi. Kishilarning ramzi – adabiy qahramonlar ham shunday. Qahramonlarni asardagi ahamiyati, syujetdagi o’rniga ko’ra quyidagicha tasniflash mumkin: ularning ayrimi syujet markazida turib, diqqatni jalb qiladi; ba’zilari bu jihatdan, ikkinchi darajali o’rin

tutadi; yana bir xillari voqealar "sahna" sida goh-gohida paydo bo'lib qoladi; ayrimlari esa bor-yo'g'i bir ko'rinib ketadi, xolos. Muayyan syujetga asoslangan asarlarda qahramonlar aynan shu tarzda namoyon bo'ladi.

Adabiy qahramonlarning turli muammolar to'g'risidagi mushohadalari, ularning o'zaro bahs-munozaralari kishilarning fikrlash qobiliyatini kengaytirib, dunyoqarashini boyitadi. Ularning turli to'siqlarga duch kelib, har xil ko'rguliklarni boshidan kechirishi xotiraga muhrlanib, unutilmas saboqqa aylanadi. Odam biror muammoga duch kelganida beixtiyor yo'l izlay boshlaydi. Xotirasida shu masalaga daxldor eshitgan, o'qigan, ko'rgan voqealari jonlanadi. Tabiiyki, hayotda bo'lgani singari xayolda namoyon bo'lgan voqealar markazida ham odamlar turadi. Tasavvur oynasida ko'ringan hodisalarda ham kishilar ishtirok etadi. Adabiy qahramonlar ham xuddi turmushning o'zidagidek muhabbat, nafrat, xiyonat, hasad kabi muammolarga duch keladi. Shuning uchun ular xayol-tasavvurda bamisoli hayotdagi odamlar kabi ko'rinadi. Xayol-tasavvur qilish odamzodning tabiatiga singib, xuddi nafas olishdek vujudining zaruriy ehtiyojiga aylanib ketgan. Inson savollar ketma-ketligi asosida mushohada yuritadi. Uning tafakkur jarayoni uzluksiz savollar "zanjir"idan iborat. Shu boisdan kishilar hissiyotlaridagi o'zgarishlarga xayol-tasavvurda namoyon bo'ladigan voqealar va ulardagi odamlar, binobarin, adabiy qahramonlar ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Kitob mutolaa qilishdan maroqlanadigan ma'rifatli kishilar bilan kitob o'qishga hafsalasiz odamlarning xatti-harakati, fe'l-atvori o'rtasida jiddiy tafovut mavjudligi shundan dalolat beradi.

Badiiy asarlardagi adabiy qahramonlar obrazi to'g'risida quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. Adabiy qahramon badiiy adabiyotdagi inson timsolidir. Adabiy qahramonda inson obrazi gavdalantirilib, uning muayyan makon va zamondagi xatti-harakati, qiyofasi, muloqoti ko'rsatiladi.

Inson obrazini adabiy qahramon sifatida gavdalantirishda uzoq asrlik yo'l bosib o'tilgan. Insoniyatning badiiy tafakkuri dastlab kishilar hayotini, ularning kechmish-kechirmishlarini hikoya qilish, naql etishdan boshlangan. Zamonlar o'tishi bilan afsona, rivoyat, ertak, dostonlarda kishilarning hayotdagi o'xshash va ulardan farqli turli obrazlari paydo bo'lgan.

2. Folklor va yozma adabiyot namunalari, romantizm va realizm yo'nalishidagi turli asarlar shuni ko'rsatadiki, insonning adabiy qahramon sifatidagi timsolini yaratishda, kishilar hayotini

aks ettirishda oddiy bayon etish (ertak, doston)dan plastik tasvirlash (F.Dostoyevskiy, O.Balzak, Stendal, R.Thakur va boshqa adiblar asarlari)ga tadrijiy tarzda erishilgan. Barcha xalqlar adabiyoti tarixi shundan dalolat beradi.

3. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot mumtoz namunalaridagi adabiy qahramonlar obrazida kishilarning orzu-umidlari, ezgulikka intilishi ifodalangan. "Shohnoma", "Alpomish", "Xamsa" dostonlari shunday asarlar sirasiga kiradi. Xalq dahosi yaratgan va ulug' ijodkorlarning qalb haroratiga yo'g'rilgan adabiy qahramonlar kishilarning ezgulikka ishonchini kuchaytirgan.

4. Adabiy qahramonlar xatti-harakatida kishilarga xos xususiyatlar o'ziga xos tarzda ko'rsatiladi. Kishilarning hayot tarzi, tarjimai holi adabiy qahramonlarga aynan ko'chirilmaydi. Ularning kechmish-kechirmishlari zamon va makon jihatidan ixchamlashtirilib, umumlashtiriladi.

5. Inson obrazini ko'rsatishda janrlar bir-biridan farq qiladi. Bu ularning hayot voqeligini qamrashidan kelib chiqadi. Kichik she'riy asar (g'azal, ruboiy kabi) lirik qahramon kechinmalarida insonning ma'lum bir paytdagi kayfiyati, ruhiy holati ko'rsatiladi. Hikoyada muayyan voqea orqali kishilar xarakteriga xos muhim bir jihatga etibor qaratiladi. Roman, qissa, doston, drama, komediya, tragediyada bir-biri bilan bog'langan turli voqealar orqali qahramonlar fe'l-atvorining turli jihatlari ochib beriladi.

6. Adabiy qahramonlar asardagi o'rni, syujetdagi ishtirokiga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi. She'riy asarda shoir asosiy qahramon sanaladi va u adabiyotshunoslikda "lirik qahramon" deb yuritiladi. Afsona, rivoyat, ertak, doston, roman, qissa, hikoya kabi voqeaband asarlarda qahramonlar voqealardagi ishtiroki, syujetdagi o'rniga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi va asosiy, yondosh va epizodik qahramonlarga bo'linadi. Asosiy qahramon "bosh qahramon" deb ham yuritiladi va u syujet markazida turadi. Barcha voqealar uning atrofida kechadi. Har bir asarda bitta yoki ikkita asosiy qahramon bo'ladi. Yondosh qahramonlar voqealardagi ishtiroki jihatidan asosiy qahramondan quyida turadi. Yondosh qahramonlar har bir asardan bir nechta bo'lgani holda, fe'l-atvori, dunyoqarashi jihatidan bir-biridan jiddiy farq qiladi. Yondosh qahramonlar asosiy qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladi. Shuning uchun ko'pincha ular fe'l-atvorining bir jihati yoritiladi. Epizodik qahramonlar "sahna"da bir-ikki marta ko'rinadi. Ular syujetda, asosan, tutashtiruvchi "halqa" vazifasini bajaradi. "O'tkan kunlar" romanida Otabek asosiy, Hasanali, O'zbek oyim, Yusufbek

hoji, Homid kabilar yondosh, To'ybeka, qovoq devona, Ali epizodik qahramon sanaladi.

1. Adabiy qahramonlar obrazini yaratishda tasodifiy voqealar muhim o'rin tutadi. Syujetda "birdan", "kutilmaganda", "tasodifan", "shu payt" deya burilishlar hosil qilinadi va voqealar jarayoniga yangi qahramonlar olib kiriladi. Aksariyat asarlarda dastlab ularning ismi aytilib, qiyofasi tasvirlanadi. Keyin ular voqealar oqimiga qo'shilib, syujet yo'nalishi tarmoqlanib kengayadi.

2. Folklor asarlari va ma'rifiy didaktik xarakterdagi asarlarda qahramonlar faoliyati bayon etiladi. Ular xarakteri mantiqiga ko'ra emas, muallif maqsadiga muvofiq harakat qiladi. Bu o'sha asarda muayyan g'oyaning ilgari surilishidan kelib chiqadi. Har bir qahramon o'zida ma'lum bir g'oyani mujassamlashtiradi. Bu, ayniqsa, asosiy qahramon obrazida aniq namoyon bo'ladi.

3. Adabiyotning san'at turi sifatidagi xususiyati va uning ijtimoiy tabiati adabiy qahramonlarda ko'rinadi. Asarlarda qahramonlar qiyofasi, ular harakat qilayotgan zamon va makonning nafis (plastik) tasvirlanishi adabiyotning san'at turi ekanligi, qahramonlar muloqoti, xatti-harakati, o'zaro aloqalari orqali muayyan hodisalarga munosabatining ifodalanishi esa so'z san'ati ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

4. Inson dunyosining gavdalandirilishi badiiy asarlarning ta'sirchanligini ta'minlaydigan eng muhim omil sanaladi. Inson dunyosi esa adabiy qahramonlar obrazida aks ettiriladi. Adabiy qahramonlar o'z xatti-harakati, faoliyati orqali kishilar o'rtasidagi ma'lum munosabatlarni, hayotdagi ma'lum bir voqelikni gavdalandiradi.

5. Badiiy asarlarda qahramonlarning ilk uchrashuviga ko'p e'tibor qaratiladi. Ularning birinchi marta duch kelgan lahzalarini tez-tez eslashi ta'kidlanadi. O'z kechmishtarini eslaydigan, tevarak-atrofdagi hodisalarni o'tmishdagi voqealar bilan bog'lab, tahlil qiladigan qahramonlar diqqatni ko'proq jalb etadi. Ayni qahramonlar boshqa personajlarga qaraganda ancha ta'sirchan bo'ladi. Adabiy qahramonlarning beixtiyor o'tmishini eslashi va unda shu paytdagi holatiga daxldor jihatlarni ko'ra bilishi hayot haqiqatiga to'la mos keladi. Chunki xotira kishida kutilmaganda, daf'atan uyg'onadi. Odam yillar, oylar, kunlar, soatlarni emas, lahzalarni eslab qoladi. Lahzalardan iborat xotira "ko'zgu" sida mavjud voqelikka aloqador "nuqta"lar ko'rinadi va ular hissiyotlarga ta'sir etib, harakatga undaydi, yangicha fikr uyg'otadi.

6. Badiiy asarlarda qahramonlarning ruhiy holatini ko'rsatishga

keng o'rin beriladi. Chunki inson obrazini gavdalan-tirishda bu muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sevishganlarning holatini tasvirlashda ularning hissiyotlarini ifodalashga alohida e'tibor qaratilib, oshiqqlarning ruhiyati, kayfiyati, ko'rinishi, o'y-xayollarida jiddiy o'zgarish bo'lgani ta'kidlanadi. Haqiqatan ham, kishilar hissiyotlari ta'sirida turli holatlarga tushadi. Inson tabiatiga xos bu xususiyat, ayniqsa, bir-birini yoqtirib qolgan yoki o'rtasida adovat, nafrat paydo bo'lgan kishilarning qiyofasi, holatida aniq seziladi.

7. Ayrim adabiy qahramonlar muayyan prototipga asoslansa-da, ammo ular hech qachon prototipning ayni nusxasi sanalmaydi. Chunki har qanday adabiy qahramon ijodkorning muayyan konsepsiyasini ifodalaydi. Muallif har bir personaiga oshkora yoki yashirin tarzda muayyan munosabatda bo'ladi. Muallifning adabiy qahramonga munosabatida asarning janri ham alohida o'rin tutadi. Hayot hodisalari haqqoniy aks ettirilgan asarlar bilan hajviy asarlar taqqoslansa, bu aniq bilinadi. Hajviy asarlarda muallif qahramonlari qiyofasi, xatti-harakatini ko'proq kinoya, piching, zaharxanda kulgi bilan ko'rsatadi.

8. Adabiy qahramon obrazida muayyan davr kishilarning ijtimoiy hayoti, dunyoqarashi, orzu-intilishlari aks etadi. Chunki adabiy qahramonlar uchun ma'lum bir zamon va makondagi kishilar turmushi asos qilib olinadi. Ularning tashqi qiyofasi, o'zaro aloqa, munosabatlarini ko'rsatish orqali muayyan hudud kishilarining o'tmishi, bugungi hayoti to'g'risida fikr bildiriladi.

Adabiyotlar

- Абу Наср Форобий. 1993. *Фозил одамлар шахри*. 224. Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
- Али бобо ва қирқ қароқчи: *Араб халқ эртаклари*. 1990. 336. Тошкент, Чўлпон.
- Алпомиш. 1999. *Ўзбек қаҳрамонлик эпоси*. 832. Тошкент, Фан.
- Аристотель. 1980. *Поэтика* (Поэзия санъати ҳақида). 152. Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент.
- Бахтин М.М. 1986. *Литературно-критические статьи*. 543. Масква: Художественная литература.
- Гассет Х.О. 2008. *Севги сеҳри*. Жаҳон адабиёти. 2-сон. Тошкент.
- Достоевский Ф.М. 1996. *Хўрланган ва ҳақоратланганлар*. 400. Роман. Тошкент, Бадий адабиёт нашриёти.
- Жойс Ж. 2007. *Навқирон санъаткорнинг сийрати*. Жаҳон адабиёти. 3-сон.
- Navoiy A. 2006. Farhod va Shirin. 536. Тошкент, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Тагор Р. 1965. Асарлар. Саккиз томлик. 8-том. 360. Тошкент, Бадий адабиёт нашриёти.

- Фитрат А. 2006. Танланган асарлар. Ж.ІV. Дарслик, ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. 336. Тошкент, Маънавият.
- Чехов А.П. 1957. Танланган асарлар. Уч томлик. 1-том. 692. Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти.
- Шарқ халқлари эртаклари. 1994. 208. Тошкент, Шарқ.
- Шопенгауэр Э. 2008. Севги илоҳиёти. Жаҳон адабиёти. 5-сон.
- Қаҳҳор А. 1987. Асарлар. Беш жилдлик. 1-жилд. Сароб: Роман. Ҳикоялар. 336. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Қодирий А. 1974. Ўтган кунлар. Тарихий роман. 400. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Abdulla, U. O. STORIES OF KHAYRIDDIN SULTANOV.
- Ulug'ov, A. (2021, March). MAHMUDHOJA BEHBUDI IS A FIGURE OF HISTORY. In *Конференции*.
- Abdulla, U. O. (2021). GREAT TEXTBOOK OR THE CREATION OF A SCHOLARLY LITERARY CRITIC. *Conferencea*, 83-94.
- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 295-305.
- Rasulova, U. (2021). Devotees of knowledge. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1270-1274.
- Jabborov, N., & Hojieva, S. (2024). Cholpon and World Literary Aesthetic Thinking. *SPAST Reports*, 1(1).

The image of a literary hero

Abdulla ULUGOV¹

Abstract

“Literary hero” means, first of all, a human image in works of art. “Literary hero” is always considered one of the important problems in literary studies. In works of art, the image of people is shown in the process of life events, in the world of imagination. They differ from each other according to their character and behavior. The image of people in poetic, prose and dramatic works attracts attention with their unique features.

The image of a literary hero is directly connected with many factors that make up the composition of an artistic work and determine its plot and composition. In particular, when analyzing the events in the plot system, when talking about the time and place where the events take place, when commenting on the purpose of the author and the idea of the work, of course, attention is paid to the image of the literary hero in the story,

¹ *Ulugov, Abdulla* – Candidate of philological sciences, professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: aulugov@navoiy-uni.uz; ulugovabdulla05121960@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-7013-400X

For citation: Ulukhov, A. 2024. “The image of a literary hero”. *Uzbekistan: Language and Culture*. 1 (2): 4-32.

short story, novel, drama, comedy, tragedy, epic, legend.

How the highlighted life events are covered is determined by how the image of the literary hero is embodied. The skill of a writer, poet, dramatist as a creator, as well as the level of artistry of a work is evaluated depending on how the image of a literary hero is reflected in it.

The uniqueness of each work is evident in the image of the literary hero in it. Not one, but several literary characters move on the "stage" of a work of art. Depending on the level of their participation in the process of events, their place in the events of the plot system, they are conventionally divided into "main character", "main character", "secondary character". The problem focused in the work connects them with each other. Each of the literary heroes illuminates a specific aspect of the problem, a certain edge of the focused problem with his activity. They contribute to the manifestation of the character traits of the main literary character.

This article discusses how the image of a person is reflected in works of art.

Key words: *person, main character, secondary character, character, artistic work, social life, author's purpose, theme of the work, idea of the work.*

References

- Abu Nasr Forobiy. 1993. Fozil odamlar shahri. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti. 224. Toshkent.
- Ali bobo va qirq qaroqchi: Arab xalq ertaklari. 1990. 336. Toshkent, Cho'lpon.
- Alpomish. 1999. O'zbek qahramonlik eposi. 832. Toshkent, Fan.
- Aristotel. 1980. Poetika (Poeziya san'ati haqida). 152. Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.
- Baxtin M.M. 1986. Literaturno-kriticheskie stati. 543. Moskva, Xudojest-vennaya literatura.
- Gasset X.O. 2008. Sevgi sehri. Jahon adabiyoti. 2-son. Toshkent.
- Dostoevskiy F.M. 1996. Xo'rlangan va haqoratlanganlar. 400. Roman. Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti.
- Joys J. 2007. Navqiron san'atkorning siyrati. Jahon adabiyoti. 3-son.
- Navoiy A. 2006. Farhod va Shirin. 536. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Tagor R. 1965. Asarlar. Sakkiz tomlik. 8-tom. 360. Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti.
- Fitrat A. 2006. Tanlangan asarlar. J.IV. Darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. 336. Toshkent: Ma'naviyat.
- Chexov A.P. 1957. Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1-tom. 692. Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti.
- Sharq xalqlari ertaklari. 1994. 208. Toshkent: Sharq.
- Shopenhauer E. 2008. Sevgi ilohiyoti. Jahon adabiyoti. 5-son.
- Qahhor A. 1987. Asarlar. Besh jildlik. 1-jild. Sarob: Roman. Hikoyalar. 336. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti.

- Qodiriy A. 1974. O'tkan kunlar. Tarixiy roman. 400. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Abdulla, U. O. STORIES OF KHAYRIDDIN SULTANOV.
- Ulug'ov, A. (2021, March). MAHMUDHOJA BEHBUDI IS A FIGURE OF HISTORY. In *Конференции*.
- Abdulla, U. O. (2021). GREAT TEXTBOOK OR THE CREATION OF A SCHOLARLY LITERARY CRITIC. *Conferencea*, 83-94.
- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 295-305.
- Rasulova, U. (2021). Devotees of knowledge. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1270-1274.
- Jabborov, N., & Hojjeva, S. (2024). Cholpon and World Literary Aesthetic Thinking. *SPAST Reports*, 1(1).